

**PISA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI TASHKIL ETISHDAGI QARASHLAR
VA YONDASHUVLAR**

Palvannazirov Sardorbek Xamrobek o'g'li

Oriental universiteti

Ta'lim menejmenti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi ta'lim jarayonlarini PISA xalqaro baholash dasturlariga muvofiq tashkil etishdagi qarashlar hamda yondashuvlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: PISA, xalqaro baholash, jarayon, ta'lim, tanqidiy va kreativ fikrlash.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning jamiyat oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda. Strategik maqsadlarga erishish yangi marralarni zabt etish rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak saviyali kadrlar mutaxassislarining o'rni beqiyos. Buning zaminida inson kapitali sodda qilib aytganda inson uning salohiyatini kashf etish hamda uni ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

“Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki bu shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatgich 4 barobarni tashkil etadi. Inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun esa barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”, - Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

PISA-o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi.

PISA tadqiqoti- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) (OECD - Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi. Tadqiqot ilk bora 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba o'tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Ammo pandemiya sabab 2022-yil o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Ushbu navbatdagi tadqiqotda O'zbekiston ham boshqa yetakchi davlatlar qatori o'zining ishtirokini ko'rsatdi.

Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Testda faqat 15 yoshli o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika, va tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Birgina 2015-yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA Xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

Ushbu tadqiqot Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baholanadi. Dastur ko'magida

turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Har bir davlatdan ishtirok etuvchi o'quvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan konsorsiumda yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.

PISA-o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan. PISA Xalqaro dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatda ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari, ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

PISA- xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki tartib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqazo etmaydi. Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi, davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof etadi.

1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme of International Student Assessment) – O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg'ayishidir. Shu ma'noda OECD dek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.¹

PISA ta'lim turi bu o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqazo etmaydi. PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development (OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili o'tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. PISA tadqiqotlari har uch yilda o'tkazilishiga sabab shuki, PISAning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi. PISA tadqiqotlarida asosan 15 yoshli o'quvchilar qatnashishining sababi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo aksariyat davlatlarda 15

¹ A.A.Ismailov, X.J.Daminov va boshqalar. «O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma» 1-son, Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 2020-yil, 128 bet.

yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. Savodxonlikni baholashda uyidagi kompetensiyalarni o'quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini aniqlashda qo'llaniladigan kompetensiyalar misolida ko'rib chiqamiz mumkin:

- Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi.
- Ilmiy-tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi.
- Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi.

Mamlakatimizda ta'limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylangan bugungi kunda 2021-yilda o'tkaziladigan PISA baholash dasturida 85 davlat qatori O'zbekiston ham ilk marotaba qatnashadi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning tadqiqotga munosib tayyorgarlik ko'rishini talab etadi. Bunda o'quvchilarimiz qimmatli tahlil va xulosalarni olishi hamda xalqaro miqyosda o'zini munosib namoyon etishi mumkin. 1990-yillarning oxirida ta'lim siyosatini ishlab chiqish uchun tadqiqotlarda aniq ilmiy yondashuvni qo'llash g'oyasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur – PISA tadqiqoti yaratilishiga olib keldi. PISA tadqiqotida baholashning asosi, bu – matematika, o'qish, tabiiy fanlar va qator innovatsion sohalar bo'yicha jahon miqyosida muvofiqlashtirilgan topshiriqlar to'plamidir. Bunday baholash har 3 yilda ishtirokchi mamlakatlarning 15 yoshli o'quvchilari o'rtasida tasodifiy tanlov asosida o'tkaziladi. PISA fanlarga oid bilimlarni, shuningdek, o'quvchilarning shu bilimlarni hatto notanish kontekstda ham ijodiy qo'llash qobiliyatini baholaydi. Shuningdek, bu dastur 16 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan insonlar o'rtasida o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyasi (AKT) sohasidagi bilimlarni o'lchaydigan PIAAC dasturi bilan chambarchas bog'liq. PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o'zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta'lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etadi, ya'ni investorlar mamlakatda bilimli, malakali kadrlar bormi, degan savolga bu tadqiqot natijalari orqali javob topadi. 2021-yildagi PISA tadqiqotida matematik savodxonlik darajasini tekshirish ustuvorlik kasb etadi. Ma'lumot uchun, PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun matematik savodxonlik yo'nalishi bo'yicha smartfondan foydalanish, daraja xossalarning go'zalligi, xarid qilish qarori, navigatsiya kabi topshiriqlarni bajarib, shug'ullanish kerak bo'ladi.

PISA (The Programme for International Student Assessment) - O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, ja'mi testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo'ladi. 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan. Aynan 15 yoshli o'quvchi yoshlar o'rtasida dasturni amalga oshirilishi sababi ushbu yoshda aksar iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning o'quvchi yoshlari majburiy ta'limning oxirgi bosqichiga o'tishadi. Dasturning asosiy maqsadi o'quvchilarning maktabda olgan bilimni emas, balki olgan malaka, bilim va ko'nikmalarni hayotda qullashni bilish va natijani tahlil qila olish, vaziyatdan chiqqa olish, baholashni bilishni tekshirish. PISA - dasturi o'quvchilarning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontrish va bilimlarini mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. 2000-2015-yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda –

Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada - Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rtta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan.

PISA 2000-yildan buyon har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ham qatnashishi ko'zda tutilgan. Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi baholash dasturlari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o'tkazish soha xodimlari zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi. 2021-yil PISA tadqiqotida ilk bor ishirok etsak, o'quvchilarimizni bu baholash dasturiga puxta tayyorlashimiz kerak, chunki bizning aksariyat o'quvchilarimiz oddiy savollarga ko'nikib qolishgan. PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalg'itib ham qo'yishi mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

- u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;
- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamlil xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;
- tadqiqotda umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadilar;
- o'quvchilarning "mustaqil hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- o'quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o'qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.
- tadqiqotda o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotda qo'llay olish layoqati baholanadi;
- tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy yo'nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi;

O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga egadir:

- O'zbekistonda umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorgarligini aniqlash;
- Mamlakatdagi umumiy o'rtta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;
- O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF-5712-son – 2019-yil 29-aprel
2. Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori – 2018-yil 8-dekabr
3. A.A.Ismailov, X.J.Daminov va boshqalar. «O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma» 1-son, Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 2020-yil, 128 bet.
4. Andreas Schelchier “World Class” – OECD Publishing 2-son, 2018-yil, 256 bet